



## “A NIGHT CONVERSATION WITH DOSTOEVSKY”: AN ANALYSIS OF THE ESSAY

**Akhmedova Aziza Komilovna**

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

World Languages University Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [eternalworldlanguages@gmail.com](mailto:eternalworldlanguages@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18976226>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 11<sup>th</sup> March 2026

Online: 12<sup>th</sup> March 2026

### KEYWORDS

*Diary of a Writer, psychoanalysis, psychotype, Sigmund Freud, Id, Ego, Superego.*

### ABSTRACT

*This article analyzes the ideological and psychological contradictions in Fyodor Dostoevsky's Diary of a Writer. The study refers to Ibrahim Gafurov's essay "A Night Conversation with Dostoevsky," which questions why a writer known for deep humanism and compassion could support imperial and colonial policies. The paper explores several factors that may explain this paradox. First, Dostoevsky's strong attachment to Russian national identity and his concern for the destiny of his people influenced his political views. Second, the historical context of the nineteenth century, when imperial expansion was often justified as a civilizing mission, shaped the writer's worldview. Third, the article examines psychological explanations, including Dostoevsky's illness (epilepsy) and possible epileptoid personality traits described in psychological literature. Freud's model of the psyche (Id, Ego, Superego) is also applied to interpret how unconscious impulses and internal conflicts may have influenced the writer's creative expression. The study concludes that Diary of a Writer reflects only one facet of Dostoevsky's complex personality. His genius lies in his ability to depict the most irrational and contradictory aspects of the human psyche, making his work a unique phenomenon in world literature.*

## «НОЧНОЙ РАЗГОВОР С ДОСТОЕВСКИМ»: АНАЛИЗ ЭССЕ

**Ахмедова Азиза Камилловна**

доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18976226>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 11<sup>th</sup> March 2026

Online: 12<sup>th</sup> March 2026

### KEYWORDS

### ABSTRACT

*В статье анализируются идейные и психологические противоречия в произведении Фёдора Достоевского «Дневник писателя». В центре внимания находится*



«Дневник писателя», психоанализ, психотип, Зигмунд Фрейд, Ид, Эго, Суперэго.

эссе Ибрагима Гафурова «Ночной разговор с Достоевским», в котором поднимается вопрос о том, почему писатель, известный своим гуманизмом и сочувствием к униженным и оскорблённым, поддерживал имперскую и колониальную политику. Рассматриваются возможные причины данного парадокса. Во-первых, подчеркивается сильная привязанность Достоевского к своей нации и его забота о судьбе русского народа. Во-вторых, анализируется социально-исторический контекст XIX века, когда экспансионистская политика нередко оправдывалась идеей «цивилизаторской миссии». В-третьих, исследуются психологические факторы, включая эпилепсию писателя и особенности так называемого эпилептоидного типа личности. Для интерпретации внутреннего мира Достоевского также применяется психоаналитическая модель личности Зигмунда Фрейда (Id, Ego, Superego). Делается вывод о том, что «Дневник писателя» отражает лишь одну грань сложной личности Достоевского. Его гений заключается в способности художественно передавать самые противоречивые и иррациональные проявления человеческой психики.

## DOSTOYEVSKIY BILAN TUNGI SUHBAT: ESSE TAHLILI

**Axmedova Aziza Komilovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

<https://orcid.org/0000-0003-0310-5601>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18976226>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 11<sup>th</sup> March 2026

Online: 12<sup>th</sup> March 2026

### KEYWORDS

“Yozuvchi kundaliklari”, psixoanaliz, psixotip, Zigmund Freyd, Id, Ego, Superego.

### ABSTRACT

Mazkur maqolada Fyodor Dostoyevskiyning “Yozuvchining kundaliklari” asaridagi g'oyaviy va psixologik ziddiyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida Ibrohim G'ofurovning “Dostoyevskiy bilan tungi suhbat” esesi turadi. Unda insonparvarlik ruhidagi asarlari bilan tanilgan yozuvchi nega mustamlakachilik siyosatini qo'llab-quvvatlagani haqidagi savol qo'yiladi. Maqolada ushbu paradoksning bir necha ehtimoliy omillari ko'rib chiqiladi. Avvalo, Dostoyevskiyning o'z millatiga bo'lgan kuchli muhabbati va xalq taqdiri uchun qayg'urishi uning siyosiy qarashlariga ta'sir ko'rsatganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, XIX asr ijtimoiy-tarixiy konteksti – ekspansiya siyosati “madaniy missiya” sifatida targ'ib



*qilingan davr – yozuvchi dunyoqarashiga ta'sir etgan. Bundan tashqari, yozuvchining epilepsiya kasalligi va ehtimoliy epileptoid shaxs tipiga oid psixologik omillar ham tahlil qilinadi. Tadqiqotda Zigmund Freydning shaxs psixikasi haqidagi Id, Ego va Superego modeli ham qo'llanadi. Xulosa qilinishicha, "Yozuvchining kundaliklari" Dostoyevskiy shaxsiyatining faqat bir qirrasini aks ettiradi. Yozuvchining dahosi inson ruhiyatining eng murakkab va irratsional tomonlarini badiiy tasvirlash qobiliyatida namoyon bo'ladi.*

**KIRISH.** "Yozuvchi kundaliklari" asari Dostoyevskiy ijodida alohida ajralib turadi. Hamisha o'zi aytmoqchi bo'lgan haqiqatlarni badiiy polifonik(ko'povozli) obrazlarga ko'chirgan adib fikrlarni boricha, badiiy ishlov bermasdan, keskin, qat'iy bitiklarga aylantiradi. Yozuvchining ijtimoiy pozitsiyasi asarda shunchalar ro'y-rost, betakalluf ifoda etildiki, ko'pchilik Dostoyevskiyni bilganlar undan qattiq hayratda qoldilar, ayrimlar bunday ochiqlikni "fuqarolik jasorati" deya e'tirof etdi.

"Dostoyevskiy bilan tungi" suhbat essida Ibrohim G'ofurov nega Dostoyevskiydek insonparvar, ayovli shaxs mustamlakachilik siyosatini qo'llab quvvatlaganligiga hayratlanadi hamda sabablarini taftish qiladi. Ulug' yozuvchining ijodida "azob" tushunchasi takror va takror uchrashini qayd etar ekan, I.G'ofurov adibning "Yozuvchi kundaliklari" asari ham boshqa asarlari kabi insoniy iztirobdan bino bo'lganligini ta'kidlaydi. Hissiyotlar tilini, ruhiyat ilmini shunday mahorat bilan egallagan inson zo'ravonlik siyosatini, qon to'kishni, bosqinchilikni oqlab, asoslab berishini qanday tushunmoq kerak? Mazkur matn tagmatnida biz o'quvchilarga tushunarsiz bo'lgan qanday bir tilsimot bor? Aynan shunday

og'riqli savollar "Dostoyevskiy bilan tungi suhbat" nomli essening vujudga kelishiga zamin bo'lgan.

Esseda muallifning Dostoyevskiy dahosiga bo'lgan ehtiromi, e'tirofi quyidagi fikrlarda yorqin aks etgan: "Unda azob eng yuksak nuqtaga ko'tarilganda go'zallikka aylanadi"; "U tom ma'noda ezilganlar, xo'rlanganlar va huquqsiz bo'lganlar, ojizlar va o'rtanganlarning yozuvchisi edi". Mana shunday ma'naviy yuksaklikka erishgan adibning boshqa bir asarida umuminsoniy qadriyatlarga zid g'oyaning targ'ibiga hissa qo'shganligi, tabiiyki, tushunarsiz tuyuladi. Faylasuf, o'zi ham ijodkor yozuvchi Ibrohim G'ofurov Dostoyevskiyning bunday harakatiga bir necha omillar sabab bo'lishi mumkinligini izohlaydi.

I.G'ofurov, avvalo, yozuvchining o'z millatiga bo'lgan cheksiz mehriqat diqqat qaratadi. Chindan ham, Dostoyevskiyning xalq turmushini ayovsiz tanqid qilishi, qoloqlikni, qashshoqlikni tugatishni istashi, xalqni qudratli kuchga aylanishi uchun qayg'urishi – uning millatparvar ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, Dostoyevskiy yashagan ijtimoiy-tarixiy kontekst ekspansiya siyosatini qoloq xalqlarni madaniyatlashtirish,



xoloskorlik niqobi ostida keng targ'ib etayotgan edi. Tabiiyki, yozuvchi mazkur davr kishisi sifatida yetakchi mafkura ta'siri ostida edi. Yana bir omil shu bilan izohlanadiki, "Yozuvchi kundaliklari" asari ustida ishlagan ijodkor kasal bo'lgan. "Bu ulug' imperiyachilik kasalligi edi. Og'ir o'ylarim ichida qattiq betob adib satrlari orasidan xasta bir nido eshitdim", deya qayd etadi Ibrohim G'ofurov. Ya'ni G'ofurov yozuvchidagi saltanatparastlik fanatizm darajasida kuchli bo'lganligini ilgari suradi.

**ASOSIY QISM.** Chindan ham, Dostoyevskiyning "Yozuvchining kundaliklari" asaridagi g'oyalari kelib chiqishiga ko'ra ko'p omilli va jumboqli. Dostoyevskiyning saltanatparastlik qarashlarining shakllanishida, xususan, "Yozuvchining kundaliklari" asarida aks etishiga yana qanday omillar sabab bo'ldi ekan? Asar yaratilgan davrda Dostoyevskiyning ruhiy portreti, shaxsiyati qanday edi?

"Yozuvchi kundaliklari" o'z davrini haroratini aks ettirgan barometr edi, ijtimoiy hayot oynasi, desak ham adashmaymiz. Axir bu g'oyalar turli qatlam vakillari tomonidan yillar davomida ilgari surilayotgan emasmi? Dostoyevskiyning (1821-1881) voyaga yetgan yillari Evropada inqilobiy g'oyalarning qizg'in tarqalgan 1840-yillariga to'g'ri keladi. Rossiyada davlat taqdiri haqida Chadaayev, Gersen kabi yoshlar faol fikrlari bilan ajralib turadilar. Yosh Dostoyevskiy, Petrashevskiyning utopik sotsializm haqidagi suhbatlaridan, to'garaklariga qatnagan kishilarning eng radikal go'yalaridan o'z dunyoqarashini shakllantiradi. Ular orasida N.A.Speshnev ham bor edi. Shuningdek,

Dostoyevskiy Belinskiy bilan yaqin tanish bo'lgan. Qiziqqon yoshlar jamiyatni taraqqiy ettirishning eng radikal yo'llari haqida bahslashar edilar. Shuni unitmaylikki, injinerlik mutaxassisligiga ega bo'lgan Dostoyevskiy, ijtimoiy eksperimentlarga ochiq bo'lgan. Yillar davomida yig'ilgan qudratli davlat qurish haqidagi g'oyalar aynan "Yozuvchi kundaliklari" asarida o'z aksini topadi.

Xastalik va betoblik deganda Ibrohim G'ofurov yozuvchining favqulodda kuchli imperialistik qarashlarini nazarda tutadilar. Biroq Dostoyevskiydagi xastalik nafaqat mafkuraviy, zero, uning tutqanoqdan azoblanganligi ma'lum; shuningdek, betoblikning psixologik tomonlari ham borligini inobatga olmoq o'rinli. Dostoyevskiyning to'rt yuz marta(!) tutqanoq xurujini boshidan kechirganligi ma'lum. Tabiiyki, bunday jismoniy xastalik, bunday Morbus sacer ijodkorning ruhiy holatiga, xarakteriga, shaxsiyatiga iz qoldirgan. Dostoyevskiyning shaxs tipini bir guruh ruhshunos olimlar epileptoid psixopatiya, deya tashxis qo'yishgan. P.B.Gannushkinning ta'rificha, bunday shaxs tipi o'ta qaysar, o'zining fikrlari haqligiga qat'iy ishonadigan, boshqalarga nisbatan o'ta shubhakor bo'ladilar. Yozuvchining shaxs tipi chindan ham epileptoidning radikal tipi bo'lsa, yozgan fikrlarining hagligiga yuz foiz ishongan.

Dostoyevskiy shaxsini Zigmund Freyd nazariyalari orqali talqin qilish ham ijodkor ruhiyatini tushunishga yordam beradi. Bilamizki, Freyd shaxs psixikasini uch komponenti modeli haqida yozadi: *Super Ego*- shaxsning



ijtimoiy ideallari, *Ego*- real voqeligi, *Id*-shaxsning nafs, ong osti istaklari va yashirin fantaziyalaridan iborat. Id bu anglanmaganlik sohasi. Id bu primitiv instinktlar ombori. Ombordagi ma'lumotlar odatda onnga, *Ego* va *Superego* qatlamiga chiqarilmaydi. Qadriyatlar, ijtimoiy axloq me'yorlari bunga yo'l qo'ymaydi. Ijtimoiy cheklovlar, vijdon, umuminsoniy qadriyatlar idning instiktiv hohishlarini tormozlab turadi. Chunki *Id* qonunlarni bilmaydi, qoidalarga bo'ysunmaydi. *Id* kelajakni hisobga olmaydi, unga hozir muhim, tilaklarni bugun qondirilishi muhim. Kelajakda tilaklari qanday natijalarga olib borishi *Id*ni xavotirga solmaydi.

Dostayevskiyning mukammal shaxs haqidagi go'yalari aynan knyaz Mishkin obrazida o'z ifodasini topgan. Iso Masih shaxsiga hamisha ulkan ehtirom his qilgan adib o'z ideallarini, *Super Egosini* "Telba" romani qahramonida gavdalantirgan. Biroq Dostayevskiyning butun ijodi haqida umumiy gapiganda, bir tendensiya ko'zga tashlanadi. Dostayevskiy ong osti fantaziyalarini, *Id*ning hohish-istaklarini yozayotgan asariga, personajlar ruhiyatiga, syujet qurilishiga to'laqonli, *tortinmasdan* ko'chiradi. Yozuvchining qator asarlarida uchraydigan turli yomon odatlarning tasviri, ichkilikbozlik, qimorbozlik, zo'rlash sahnalari boshqa yozuvchilar asarlarida bu qadar hayotiy chiqmagan edi. "Iblislar" asaridagi Stavroginning Matryoshani zo'rlash epizodini yozish uchun ong ostiga, *Id*ga to'liq ixtiyor berilgandagina, shunday voqeani badiiy gavdalantirish mumkin. Garchi, badiiy adabiyot xayolotga, tasavvurlarga hech senzura qo'ymasa-da, har qanday

yozuvchi ham nafsiy tug'yon sahnalarini tasvirlashga jur'at etavermaydi. Dostayevskiy ma'lum ma'noda ombor odami edi. (Bu haqda Valeriy Gindin atroflicha mulohaza yuritgan). Va uning qahramonlari ham ombor odamlari emasmi? "Jinoyat va jazo", "Aka-uka Karamazovlar" asarlarida qahramonlar ruhiyatining "omboronasi", ya'ni anglanmaganlik, *Id*ning murakkab holati yaqqol aks etgan. Bunday kuchli badiiy psilogizm betakror.

Aytish mumkinki, yozuvchidagi mazkur ijodiy xususiyat aynan "Yozuvchining kundaliklari" asarida ham yorqin namoyon bo'ladi. Muallif o'zi to'g'ri deb hisoblagan fikrlarni hayiqmasdan, mustaqil, senzurasiz, boricha aks ettirishining sababi shundan. Faqat farqi shundagi, boshqa asarlarida ong osti xayollarini personajlar orqali aks ettirgan yozuvchi, bu safar o'z shaxsi nuqtai nazaridan ifodalaydi. "Yozuvchi kundaliklari" asarida Dostayevskiy hech qanday ijtimoiy niqoblarsiz, o'z positsiyasini keskin ifodalab namoyon bo'ladi. Biroq mazkur asar ming qiyofali ijodkorning bir qirrasini xolos.

Dostayevskiyning iste'dodi, dahosi uning murakkabligida. Ijodidagi yorqin jihat ham aynan inson ruhiyatining eng chigal, tartibsiz, tizginsiz, irratsional qiyofasini badiiy nusxalay olganida. Dostayevskiy ruhan azoblangan, xasta kishilar obrazini katta mahorat bilan gavdalantiradi. V.Chij haqli ravishda xulosa qilganki, Dostayevskiy yaratgan yuzdan ortiq adabiy qahramonlarining chorak qismi ruhan xasta kishilar obrazi. Mahoratini yuzaga chiqarish yo'lida daholar turli mashaqqatlar, tan olinmaslik, qashshoqlik, baxtsizliklar, tushkunlik, unutilish va boshqa



to'siqlarni bosib o'tadilar. P.Gannushkin, o'rtamiyona, sihat va salomat odamlar muayyan patologiyaga ega shaxslarga qaraganda taraqqiyotga kamroq hissa qo'shadi, degan edi. Ulkan kashfiyotlar, tosh bosadigan yangiliklar qilganlar murakkab tabiatli, jumboqli, anglab bo'lmaydigan shaxslar ekanligi shubhasiz.

**XULOSA.** Dostoyevskiy butun kamchiliklari, baxtsizliklari-yu, ulkan mahorati hamda istedodi bilan yaxlit bir hodisa. Uni fragmentar, ya'ni qismlab anglab bo'lmaydi, aks holda oq yoki qora degan jo'n, dixatomik xulosa kelib chiqadi. Daholar fojiali shaxslar.

### References:

1. Dostoyevskiy bilan tungi suhbat. <https://esselar.uz/?p=484>
2. Фрейд З. Психианализ ҳақида бешта маъруза / Тарж. Х.Алимов. – Тошкент: Muharrir, 2019.
3. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Художественная литература, 1972. – 472 с
4. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – Москва: Просвещение, 1988. – 176 с.
1. 5.Золотухина О.Б. Психологизм в литературе. – Гродно: Гродненский государственный университет имени Янки Купалы, 2009. – 178 с
5. Пищальникова В.А. Психопэтика. – Барнаул: Издательство АГУ, 1999. – 176 с.
6. Ганнушкин П. Б. Клиника психопатий: их статика, динамика, систематика. Moscow: Юрайт, 2025. — 166 p. — Series Антология мысли. ISBN: 978-5-534-11773-8
7. Леонгард К. Акцентуированные личности. Киев, 1981
8. Белов С.В. Энциклопедический словарь Ф.М. Достоевского. СПб., 2001. Т.1, 2.
9. Гарин И.И. Многоликий Достоевский. М., 1997.
10. Ермаков ИД. Психианализ литературы. М., 1999
11. Мелехов Д.Е. Болезнь Достоевского // Руководство «Психиатрия и вопросы душевной жизни». М., 1991.